



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

EXPECTED DURATION OF EDUCATION

HRM LIFE EXPECTANCY HEALTH STATUS HUMAN

STATUS HUMAN CAPITAL HUMAN CAPITAL IND

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMIC

QUALITY OF EDUCATION EXPECTED DURATION

DURATION OF EDUCATION

LIFE EXPECTANCY HEALTH

HRM HUMAN CAPITAL

HUMAN CAPITAL INDEX

QUALITY OF EDUCATION EXPECTED

**TASHKENT S
OF ECONOMI
LABOUR ECO
HUMAN CAPI**

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

**LABOUR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

2024 yil 3-son

Volume 9, Issue 3, 2024



МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ
ВА ИНСОН КАПИТАЛИ
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ
№ 3-2024

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-soni qarori bilan ro’yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko’chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog’lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:**(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:**(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.

Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d.. prof.

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof

Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof

Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.

Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.

Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d., prof.

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.

Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d.. prof.

Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.

Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)

Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.

Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.

G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.

Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)

Jon Ankor (Buyuk Britaniya)

Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)

Xeynz Miller (AQSh)

Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)

Masato Xivatari (Yaponiya)

Gerxard Feldmayer (Germaniya)

Eko Shri Margianti (Indoneziya)

Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)

Rohana Ngah (Malayziya)

Sharifah Zanniyerah (Malayziya)

Teguh Dartanto (Indoneziya)

Nur Azlinna (Saudiya Arabiston)

Muhammed Xoliq (Pokiston)

Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Veb-administrator (Web admin): Musayev Xurshid Sharifjonovich



+99899 881-86-98



ilmiymaktab@gmail.com



Tashkent, Uzbekistan



www.laboreconomics.uz

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

| | | |
|--------------------------|---|-------|
| S.B.G'oyipnazarov | <i>Labor market transformations in developing countries</i> | 5-23 |
| A.B.Xayitov | <i>Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va yoshlar bandligini ta'minlashning davlat siyosati</i> | 24-29 |
| G.F.Abdumalikova | <i>O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotda aholining ish bilan bandligini ta'minlash</i> | 30-37 |
| B.E.Mamaraximov | <i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida bitiruvchilarni bandligini ta'milash tizimining matematik modelini optimallashtirish</i> | 38-45 |
| J.D.Jo'rayev | <i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish</i> | 46-51 |
| T.T.Xalikov | <i>Barqaror iqtisodiy o'sishda mehnat unumdorligini oshirish yo'llari</i> | 52-62 |
| T.T.Xalikov | <i>.....</i> | |
| F.X.Mamatova | <i>.....</i> | |

INSON KAPITALI

| | | |
|--------------------------|--|-------|
| K.X.Abduraxmonov | <i>Роль стратегических инвестиций в развитие человеческого капитала в условиях цифровой трансформации банковской системы Узбекистана</i> | 63-74 |
| S.S.Ismoilov | <i>.....</i> | |
| S.B.G'oyipnazarov | <i>Inson kapitalini raqamli rivojlanish holatini baholashning uslubiy asoslari</i> | 75-88 |
| T.N.Azimov | <i>.....</i> | |

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH

| | | |
|--------------------------|--|---------|
| G.Q.Abduraxmonova | <i>Davlat korxonalarida inson resurslarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aralash usul yordamida baholash</i> | 89-110 |
| M.Sh.Xaydarova | <i>.....</i> | |
| U.X.Abdukarimov | <i>Davlat fuqarolik xizmatchilarining salohiyatini rivojlantirish: yangi davr talabi va imkoniyatlari</i> | 111-120 |
| M.A.Qayumova | <i>Strategies for enhancing faculty motivation: evidence-based practices for higher education institutions</i> | 121-131 |
| X.A.Ortiqov | <i>Muassasalarda yil o'rtasida shtat jadvaliga o'zgartirish kiritish tartibi</i> | 132-138 |
| G.X.Anvarova | <i>.....</i> | |
| M.A.Yusupova | <i>Bank sohasida sun'iy intellektni integratsiya qilish orqali mehnat tashkilotini transformatsiya qilish</i> | 139-152 |

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

| | | |
|--------------------------|--|---------|
| Z.Dj.Adilova | <i>Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni rivojlantirish istiqbollari</i> | 153-162 |
| B.K.Kusekeyev | <i>Привлечения инвестиций в сферу туризма в Узбекистане: тенденции и события</i> | 163-170 |
| B.Z.Arzimatov | <i>Mintaqalararo iqtisodiy integratsiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri</i> | 171-180 |
| N.O.Jumaniyozov | <i>Moliyaviy resurslar defitsiti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarni samarali boshqaruв strategiyasini takomillashtirish</i> | 181-187 |
| K.J.Sodiqxo'jayev | <i>O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror taraqqiyotiga xorijiy investitsiyalar ta'siri</i> | 188-195 |
| N.S.Yuldashev | | |



МЕHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



BARQAROR IQTISODIY O'SISHDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Mamatova Feruza Xolbekovna

TDIU, "Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish"
kafedrasi 1-bosqich tayanch doktoranti

e-mail: Feruza.89@mail.ru

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a105

Annotatsiya. Mehnat unumdarligi va iqtisodiy o'sish mamlakatlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini saqlash va yaxshilashda muhim o'rinni egallaydi. Maqolada mehnat unumdarligidagi o'zgarishlar va uning mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda asosiy e'tibor O'zbekiston iqtisodiyotida mehnat unumdarligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar tahlili hamda uni oshirishda zarur bo'lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Bundan tashqari, mamlakatimizni yanada barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlashda mehnat unumdarligiga ta'sir etuvchi bir qator omillarning ta'siri haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: mehnat unumdarligi, iqtisodiy o'sish, bandlik darajasi, aholi daromadlari.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В УСЛОВИЯХ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА

Mamatova Feruza Xolbekovna

ТГЭУ, докторантка кафедры «Макроэкономическая
политика и прогнозирование»

Аннотация. Производительность труда и экономический рост являются основными факторами сохранения и повышения конкурентоспособности стран на мировом рынке. В статье анализируются изменения производительности труда и ее влияние на экономический рост страны. Основное внимание в исследовании уделяется анализу проводимых реформ по повышению производительности труда в экономике Узбекистана и разработке необходимых мер по ее повышению. Кроме того, также представлена информация о влиянии ряда факторов, влияющих на производительность труда, на обеспечение более стабильного развития нашей страны и высоких темпов экономического роста.

Ключевые слова: производительность труда, экономический рост, уровень занятости, доходы населения.

WAYS TO INCREASE LABOR PRODUCTIVITY IN CONDITIONS OF SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH

Mamatova Feruza Kholbekovna

TSUE, PhD student at the Department of
Macroeconomic Policy and Forecasting

Abstract. Labor productivity and economic growth are important factors in maintaining and improving the competitiveness of countries in the world market. The article analyzes changes in labor productivity and its impact on the country's economic growth. The main focus of the study is on the analysis of the reforms being carried out to increase labor productivity in the economy of Uzbekistan and the development of necessary measures to increase it. In addition, information on the influence of a number of factors affecting labor productivity in ensuring more stable development of our country and high economic growth is also provided.

Key words: labor productivity, economic growth, employment rate, population income.

Kirish

Dunyo mamlakatlari iqtisodiy siyosatining pirovard natijaviyligi asosan aholi bandligini ta'minlash hamda turmush farovonligi va yashash sifatini yanada oshirishga qaratiladi. Bu yo'nalishdagi amaliy ishlarni olib borishda asosan, yangi ish o'rinalarini yaratish, tadbirkorlikka keng yo'l ochish, iqtisodiyot real sektorining yirik ishlab chiqarish subyektlarini har tomonlama qo'llab – quvvatlash va boshqa yo'nalishdagi chora-tadbirlarni amalgalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat unumdarligining o'sishi real ish haqi o'sish sur'atlarini tezlashtirish va aholi turmush darajasini yaxshilashning asosini tashkil qiladi. Ishlangan vaqt birligi uchun real daromad faqat ishlab chiqarish hajmi real oshgan darajada oshishi mumkin. Har bir ishlangan vaqt birligi uchun qanchalik ko'p mahsulot ishlab chiqarilsa, o'sha ishlangan vaqt hisobida shunchalik ko'p real daromad taqsimlanishi mumkin. Turmush darajasining eng muhim ko'rsatkichi – aholi jon boshiga real YAMning o'sishi, mehnat unumdarligi dinamikasidan keyin yuz beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan “O'zbekiston – 2030” strategiyasida iqtisodiy o'sish barqarorligini yanada oshirish orqali aholi farovonligini yuqori bosqichga ko'tarishning maqsad va ustuvor vazifalari belgilangan. Unga ko'ra, 2030-yilga qadar O'zbekistonda iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar” qatoriga kirish maqsadi va uni amalgalash vazifalari assoslangan.

Bunga muvofiq, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish; makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy rivojlanishni zarur darajadagi energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan ta'minlash; tashqi savdo siyosatlarini o'zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali 2030-yilga borib yillik inflyatsiyani 5-6 foiz darajasida ta'minlash; iqtisodiyotda transformasiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash hamda

muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish kabi ustuvor vazifalar qo‘yilgan²⁷.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Barqaror uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish ishchilar unumdorligining o’sishidan kelib chiqadi, boshqacha qilib aytganda, bu mamlakat o‘z ishchilari va boshqa resurslaridan qanchalik samarali foydalanayotganligini anglatadi. Mehnat unumdorligi – har bir ish bilan band bo‘lgan shaxs o‘z vaqt birligi uchun ishlab chiqaradigan mahsulotdir. Ushbu ko‘rsatkichlarga aniqlik kiritish uchun mazkur ko‘rsatkichning ta’rifiga nazar tashlash maqsadga muvofiqdir. Ammo iqtisodiy adabiyotlarda uning ta’rifiga deyarli to‘xtalmagan. Faqat mehnat unumdorligi ko‘rsatkichining qanday aniqlanishi va uning mazmunigagina ahamiyat berilgan. Bu borada ham bir qancha fikrlar aytilgan. Masalan, E.A.Markaryan, G.P.Gerasimenko va S.E.Markaryanlarning mehnat unumdorligini aniqlash yo’llari bo‘yicha quyidagicha qarashlari mavjud: “Bunda ikkita ko‘rsatkich bilan ifodalash tavsiya qilingan: Bitta xodimga va bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ishlab chiqarilgan mahsulot”²⁸.

G.V.Saviskaya mazkur tushunchaga quyidagicha ta’rif bergan “Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlar tizimida ifodalananadigan va asosiy umumlashtirilgan ko‘rsatkich sifatida bitta ishlovchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ishlab chiqarilgan mahsulot hisoblanadi”²⁹.

A.Vaxabov, A.Ibrohimov va N.Ishankulovlar mehnat unumdorligi tushunchasiga bitta ishlovchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ishlab chiqarilgan mahsulot sifatida yondashib, ular tomonidan berilgan ta’rifda mehnat unumdorligiga – ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich sifatida qaralgan va uni ifodalash uchun ham ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish lozimligi uqtirilgan. Bunda bitta ishlovchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ishlab chiqarilgan mahsulot olingan³⁰.

Bundan tashqari, tarmoqlar va korxonalarda mehnat unumdorligi yalpi yoki sof mahsulot asosida hisoblanadi. Yillik mahsulot hajmini o‘rtacha ishlovchilar soniga bo‘lish orqali bir ishlovchi hisobiga yaratilgan mahsulot sifatida ham aniqlanadi³¹. Demak, mamlakat iqtisodiy o‘sish dinamikasini tahlil qilishda mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi asosiy komponentlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Mehnat unumdorligining asosiy omillari jismoniy kapital, inson kapitali va texnologik o‘zgarishlardir. Bularni iqtisodiy o‘sishning asosiy komponentlari sifatida ham ko‘rish mumkin. Jismoniy kapitalni ishchilar bilan ishslashlari kerak bo‘lgan vositalar deb hisoblash mumkin. Rasmiyroq

²⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

²⁸ Маркарьян Э.А. и.др. Экономический анализ хозяйственной деятельности: учеб. пособ./–2-е изд. перераб. и доп. – М.: КНОРУС, 2010.– С.45.

²⁹ Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учеб. пособие. – Минск: ООО “Новое знание”, 2000. – С.386.

³⁰ Vaxabov A., Ibrohimov A., Ishankulov N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. T.: Sharq, 2005. 135 b.

³¹ [O‘zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

aytganda, jismoniy kapital firmalar tomonidan ishlataladigan zavod va uskunalarini, shuningdek, infratuzilmani, yo'llar va iqtisodiyotga hissa qo'shadigan transport tarmoqlarining boshqa qismlarini o'z ichiga oladi. Inson kapitali - bu iqtisodiyotdagi o'rtacha ishchi ega bo'lgan to'plangan bilim (ta'lif va tajribadan), ko'nikma va tajriba. Odatda iqtisodiyotda o'rtacha ta'lif darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, to'plangan inson kapitali va mehnat unumdarligi shunchalik yuqori bo'ladi. Inson kapitali va jismoniy kapital to'planishi o'xshashdir: ikkala holatda ham investitsiyalar endi kelajakda uzoq muddatli samaradorlikka to'lanadi. Mehnat unumdarligini belgilovchi yana bir omil texnologiyadir. Texnologik o'zgarishlar – bu ixtiro – bilim yutuqlari va innovatsiyalarning kombinatsiyasi bo'lib, bu ilg'orlikni yangi mahsulot yoki xizmatda qo'llaydi

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda bir qator onlayn ma'lumotlar bazalaridagi ilmiy manbalarda o'z aksini topgan mehnat unumdarligi va iqtisodiy o'sish masalalariga taaluqli empirik va konseptual tadqiqotlar o'rganildi hamda ulardagi ilmiy yondashuvlar tizimga keltirildi. Shuningdek, tadqiqotda tizimli tahlil, mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil va guruhash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va muhokama

O'zbekiston iqtisodiyotida mehnat unumdarligi ko'rsatkichi barqaror o'sib borish tendensiyasiga ega. Buni quyidagi 1-jadval ma'lumotlarida ham ko'rishimiz mumkin. O'zbekistonda mehnat unumdarligi 1991-1995 yillarda aholi jon boshiga real YaIM 6,8 % darajasida qayd etilgan. Shu davrda aholi soni 2,2 foizga oshgan.

1-jadval

O'zbekistonda aholi soni, real YaIM o'sishi va mehnat unumdarligi dinamikasi

| Yillar | O'sish sur'atlari, % | | | |
|------------------|----------------------|------|------------------------|--------------------|
| | Aholi soni | YaIM | Aholi jon boshiga YaIM | Mehnat unumdarligi |
| 1991-1995 | 2,1 | -4,0 | -6,8 | - |
| 1996-2003 | 1,5 | 4,0 | 2,9 | 2,8 |
| 2004-2008 | 1,2 | 8,1 | 6,8 | 3,9 |
| 2009-2016 | 2,0 | 8,2 | 13,8 | 11,7 |
| 2017-2023 | 1,9 | 5,5 | 3,5 | 23,4 |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Shu bilan bir vaqtda mamlakatda ta'minlangan makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy o'sishni intensiv omillaridan foydalanishni faollashtirish, xususan, asosiy kapitalga kiritilayotgan xorijiy hamda ichki investitsiyalarni oshib borishi, YaIM hajmining barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlamoqda. 1991-1995-yillarda YaIM o'rtacha yiliga 4 foizga kamaygan

bo’lsa, 1996-2003-yillarda uning o’sishi 4 foizga teng bo’lgan. 2004-yildan 2008-yilgacha YaIM o’sishi o’rtacha 8,1 foizni, keyingi 8 yilda o’rtacha o’sish 8,2 foizni tashkil qilgan, 2017-2023-yillar oralig’ida esa o’rtacha 5,5 foiz o’sish kuzatilgan. Bunday o’sish sur’ati, aholi sonining doimiy ko’payib borishiga qaramasdan, aholi jon boshiga hisoblaganda, YaIM hajmining 1996-yildan boshlab doimiy o’sib borishi ta’minlamoqda. Shu davrda o’rtacha mehnat unumdorligini o’sishi 2,8 foiz (1996-2003-y.y.), 2009-2016 yillarda o’rtacha 11,7 foizga teng bo’lgan, 2017-2023-yillar davr oralig’ida esa 23,4 foiz o’sishga erishilgan.

Aytish joizki, aholi daromadlarini muttasil oshib borishi, o’z navbatida milliy iqtisodiyotga bo’lgan ichki talabni oshishiga zamin yaratib, iqtisodiyot tarmoq va sektorlaridagi iqtisodiy faoliytni oshiradi, ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish hajmlarini yanada ko’payishiga olib kelishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarining salohiyatini ishga solish, demografik omillarni va mehnat bozorining konyunkturasini hisobga olgan holda ishga joylashtirishning samarali shakllarini rivojlantrishga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Bu esa, ish o’rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash bo'yicha kompleks hamda o’zaro bog’langan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida, jumladan sanoat, qishloq xo’jaligi va xizmat ko’rsatish sohasida bandlik darajasi jadal sur’atlarda rivojlanishga olib kelmoqda.

So’ngi yillarda aholi bandligini oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni samarali ijro etilishi natijasida aholi bandligi muttasil oshib bordi. Xususan, 2015- yilda iqtisodiyotdagи bandlar soni 13,1 million kishini tashkil etgan bo’lsa, bu ko’rsatkich 2023-yilga kelib 14,0 million kishidan oshib ketdi yoki 6,9 %ga ko’paydi (1-rasm). Iqtisodiyotdagи o’rtacha bandlar soni 2015-2023-yillar mobaynida yiliga 0,9 %ga o’sdi.



1-rasm. Iqtisodiyotda bandlarning o’rtacha yillik soni (ming)

Manba: O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

So'ngi yillardagi iqtisodiyotdagi bandlar sonini iqtisodiyot tarmoqlari kesimida tahlil qilinganda ko'rish mumkinki nisbatan yuqori o'sish sur'atlari ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohalariga to'g'ri kelmoqda (2-jadval). Xususan, 2017-yilda ta'lim va san'atdagi bandlar soni 1171,9 mingni tashkil etgan bo'lса, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 1371,4 mingni (o'sish sur'ati 117,0%), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 602,6 mingdan 694,8 mingga (115,3%), savdo va umumiy ovqatlanishda 1793,5 mingdan 1953,3 mingga (108,9%) oshgan.

Sanoatda mazkur ko'rsatkich 1683,4 mingdan 1720,8 mingga (yoki o'sish sura'ti 102,2%), qurilishda 1290,0 mingdan 1502,2 mingga (116,5%), davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot sohasida 577,8 mingdan 637,9 mingacha (114,4%) ko'paygan. Xizmat ko'rsatish, servis va moliya sohalaridagi bandlar soni ham o'sish dinamikasini tashkil etgan. O'rganilayotgan davr oralig'ida qishloq xo'jaligi va kommunal xo'jaligida bandlar soni esa mos ravishda 91,1 va 80,3 foizga kamaygan.

2-jadval

O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida bandlar sonining o'sishi dinamikasi (jamiga nisbatan,%)


| Tarmoqlar | 2017 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2020 y. | 2021 y. | 2022 y. | 2023 y. | 2023-yil 2017- yilga nisbatan foiz |
|---|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|--|
| Sanoat | 1683,4 | 1677 | 1697,7 | 1690,2 | 1736,4 | 1687,6 | 1720,8 | 102,2 |
| Qishloq xo'jaligi | 3671,3 | 3537,2 | 3544,6 | 3499,2 | 3414,7 | 3438,7 | 3344 | 91,1 |
| Qurilish | 1290,0 | 1205,5 | 1324,6 | 1305,6 | 1350,8 | 1314,3 | 1502,2 | 116,5 |
| Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot | 577,8 | 631,7 | 636,6 | 635,9 | 637,3 | 636,8 | 637,9 | 110,4 |
| Kommunal xo'jaligi | 143,4 | 125,9 | 123,8 | 119,3 | 126,8 | 123 | 115,1 | 80,3 |
| Moliyaviy va sug'urta faoliyati | 72,0 | 73,5 | 75,8 | 72,5 | 70,4 | 69,6 | 73,4 | 101,9 |
| Transport va aloqa | 719,2 | 707,9 | 708,3 | 669,2 | 724,7 | 710,4 | 728,2 | 101,3 |
| Savdo va umumiy ovqatlanish | 1793,5 | 1703,7 | 1751,7 | 1708,2 | 1876,7 | 1874 | 1953,3 | 108,9 |
| Ta'lim va san'at | 1171,9 | 1177,3 | 1200,4 | 1225,2 | 1290,7 | 1340,4 | 1371,4 | 117,0 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 602,6 | 604 | 616,7 | 669,5 | 650,8 | 671,3 | 694,8 | 115,3 |
| Boshqalar | 1795,2 | 1829,4 | 1860,9 | 1641,6 | 1659,6 | 1840,1 | 1873,1 | 104,3 |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Iqtisodiyotda bandlar sonining oshishi yuqorida ta’kidlanganidek, iqtisodiyotdagi ichki talabni oshirib, iqtisodiy o’sish sur’atlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Iqtisodiyotdagi diversifikatsiya jarayonlarini jadallashuvi, real tarmoqlardagi modernizatsiyalash, texnik va texnologologik yangilash ishlarini jadal olib borilishi natijasida tarmoqlarda mutlaqo yangi va zamonaviy uskunalarini joriy etilishiga olib keladi. Bu esa o’z navbatida, ishlab chiqarish sifatini va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish bilan bir qatorda, iqtisodiyotda eng muhim ko’rsatkichlardan biri hisoblangan mehnat unumdarligini oshirishga olib keladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotidagi mehnat unumdarligi 2010-2023-yillar mobaynida o’rtacha 15,4% ga o’sgan (2-rasm). Ushbu ko’rsatkich, 2010-yilda 5,7%, 2012-yilda 5,5%, 2014-yilda 5,6%, 2016-yilda 15,4%, 2019-yilda 32,3%, 2021-yilda 16,8% va 2023-yilda 19,1%ga teng bo’lgan. Mehnat unumdarligining o’sish dinamikasida 2017 (112% ga) va 2021 (117% ga) yillarda pasayish kuzatilgan bo’lsa, 2018-yilda mazkur ko’rsatkich eng yuqori darajaga, ya’ni 44 foiz o’sish sur’atiga ega bo’ldi.




2-rasm. Iqtisodiyotdagi mehnat unumdarligi dinamikasi

Manba: O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzildi.

Bizga ma’lumki, mehnat unumdarligining muttasil oshib borishi, o’z navbatida milliy iqtisodiyotning rivojlanishida muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Mehnat unumdarligi dinamikasi tarmoqlar kesimida, xususan sanoat va qishloq xo’jaligida tahlil qilinganda, mazkur ko’rsatkich 2017-2023-yillar mobaynida sanoatda yiliga o’rtacha 28,3% va qishloq xo’jaligida 19,9%ga o’sganini ko’rish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Sanoat va qishloq xo'jaligida mehnat unumdarligi dinamikasi.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Sanoat sohasidagi mehnat unumdarligini jami iqtisodiyotdagi mehnat unumdarligidan yuqoriligi, mazkur tarmoqdagi ishlab chiqarishning yuqori sur'atlarda o'sayotganligidan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligi va tarmoq xodimlari malakasi o'sib borayotganligidan dalolat beradi.

Xulosa va tavsiyalar

Mamlakatimizni yanada barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlashda bir necha muhim omillar mavjud. Ko'plab iqtisodchilarning fikriga ko'ra³² mehnat unumdarligi va uning o'sish sur'atlari, mamlakatdagi inflyatsiya darajasiga bog'liqdir. Nazariy jihatdan qaraganda mehnat unumdarligi o'sishi eng kam ish haqini oshishining harajatlarini qoplashi va harajatlar oshishi bilan inflyatsiya oqibatlarini yumshatishi mumkin. Boshqa teng sharoitlarda mehnat unumdarligi o'sish sur'atlarining pasayishi, mehnat xarajatlarining oshishi va inflyatsiya jarayonlarini keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda mamlakat iqtisodiyotida inflyatsiya darajasini pasayishini ta'minlash mehat unumdarligi o'sishiga ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat unumdarligi o'sishiga ta'sir etuvchi yana bir omil bu investitsiyalar hisoblanadi. YaIMda investitsiyalar ulushi qanchalik katta bo'lsa, mamlakatda mehnat unumdarligining o'sish sur'ati shunchalik yuqori bo'ladi.

Investitsiyalarning YaIM dagi ulushi bilan mehnat unumdarligining o'sishi o'rtasida uzviy musbat korrelyatsion bog'liqlik mavjud. Biznes

³² Lucas R. On the Mechanics of Economic Development // Journal of Monetary Economics. - 1988. - №22
E. Denison Trends in American Economy Growth, 1929-1982. Washington: The Brjking Institution, 1985. P. 30
Салийчук В.Ф. О теоретических моделях экзогенного и эндогенного типов экономического роста. «Экономика и право». Вестник Удмуртского университета, 2012. Вып. 1. -С. 62-71.

faoliyatiga investitsiyalar kiritish, ular mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib keladi. Ammo, biznes ishiga davlat aralashuvi kuchayishi investitsiyalar tarkibining shunday o'zgarishiga olib kelishi mumkinki, o'zgarishlarning umuman jamiyat uchun nafi oshsada, tadbirkorlik mahsuloti hajmining oshishiga olib kelmaydi.

Shu bilan bir vaqtda korxonalar va shaxsiy daromadlarga solinadigan soliqlarning yuqori darajasi, foyda miqdorini kamaytiradi va bu yangi investitsion loyihalarni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Resurslar (texnika, elektr energiyasi, gaz va b.) narxi keskin oshishi, katta qo'l mehnati talab etuvchi, kam samarali texnologiyalarni qo'llashga majbur etadi. Bular hammasi provardida iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilishni qiyinlashtiradi, oqibatda tarmoq va sohalarda mehnat unumdorligi pasayishi yuz beradi.

Mehnat unumdorligi o'sishining yana bir muhim omili – bu mehnat sarfi sifati hisoblanadi. Shu tufayli ishchi kuchi safiga qo'shilayotgan yoshlarni yetarli tajriba va kasbiy tayyorgarlikka ega qilish zarur hisoblanadi. Hozirgi davrda ayollar o'rtasida bandlik darajasi sezilarli darajada oshmoqda, ularning ko'pchiligi oilali, shularni inobatga olib ular ish tajribalariga ega bo'lishini ta'minalash zarur.

Iqtisodiyotda bandlik darajasining yuqori bo'lishi asosiy kapital hajmi o'sishi bilan mutanosib ravishda o'sib borishi lozim. Bular mehnat sifatini yaxshilashga, uni tejab sarflashga asos bo'ladi.

Mamlakatda texnik taraqqiyot kapital sifatining yaxshilanishi hamda barcha harajatlar tarkibining samaradorligini, shu jumladan mehnat unumdorligini oshishiga olib keladi. Texnik taraqqiyot ilmiy – tadqiqot va tajriba – konstrukturlik ishlanmalariga qilinadigan xarajatlar hajmi bilan belgilanadi. Shularni hisobga olib ushbu xarajatlarning YaIM dagi ulushini uning yillik o'sish darajasiga mutanosib ravishda oshirib borish zarur. Aks holda yangi texnik – innovatsion rivojlanish yuz bermasligi va iqtisodiy o'sish darajasi asta sekin pasayib ketishi mumkin.

Mehnat unumdorligi o'sish sur'atlari oshishining yana bir omili sifatida institutsional xususiyatga ega bo'lgan omilni ko'rsatish mumkin. Bu mehnatni tashkil etish, ichki ishlab chiqarish munosabatlari, xodimlar va rahbarlar xatti – harakati va muloqoti, ularning o'zaro harakatlari tarkibi hisoblanadi. Xorijiy tajribalarga qaraganda ishlab chiqarishni tashkil etishda ushbu omillar asosiy rol o'ynaydi. Gap shundaki, yollanma xodimlarning katta qismiga umrbod yollanish kafolatini berish, ular qarorlar qabul qilish jarayoniga faol jalb etilishi, korxona foydasidan hisoblanadigan mukofotlar hamda korxonaning iqtisodiy farovonligi bilan uning xodimlarining daromadlari o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlash kerak. Shu bilan bir vaqtda xodimlarni o'z korxonasining raqobatbardoshligi va foyda olishida to'g'ridan – to'g'ri mafaatdor bo'lishini kuchaytiradi, o'rta bo'g'in rahbar xodimlariga bo'lgan ehtiyojni qisqartiradi. Bular natijasida manfaatlar umumiyligi va korxona boshqaruva apparati bilan oddiy xodimlar o'rtasidagi hamkorlik, katta tashkiliy moslashuvchanlik hamda ishchi va xizmatchilarning yangi texnologiyalarga

o’tishga tayyorligi namoyon bo’ladi. Buning ustiga umrbod yollanish tadbirdorlarda kadrlarning kasbiy mahoratini oshirish va qayta tayyorlash xarajatlarining doimiy ravishda oshirilishidan mafaatdorlikni keltirib chiqaradi.

Amalga oshirilgan tahlillar shuni anglatadiki, mamlakatda iqtisodiy o’sishning muhim omili sifatida mehnat unumdarligini oshirish muammosini hal etish ishlab chiqarishni tashkil etish tamoyillarini qayta ko’rib chiqishni taqazo etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, iqtisodiyotda mehnat unumdarligini yanada oshirish maqsadida quyidagi yo’nalishdagi amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Jumladan:

birinchi, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifiksiyalash, modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash jarayonlarini jadallashtirish;

ikkinchi, iqtisodiyot tarmoqlarida, birinchi navbatda sanoat sohasida yuqori texnologiyali – jahon andozalari asosidagi ishlab chiqarishni rivojlantirish;

uchinchi, iqtisodiyotning lokomativi hisoblangan tarmoqlari uchun har tomonlama qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini yaratishni davom ettirish. Bunda asosan, yirik ishlab chiqarish korxonalariga alohida imtiyozlar qo’llagan holda e’tiborni kuchaytirish;

to’rtinchi, iqtisodiyotda bandlarning asosiy ulushi faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub’ektlari ekanligini inobatga olgan holda ularda yaratilayotgan ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha zarur choralar ko'rish;

beshinchi, innovatsion texnologiyalarni qo’llagan holda qishloq xo’jaligi mahsulotlari hosildorligini oshirish va sug’oriladigan yerlar holatini yanada yaxshilash;

oltinchi, iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan band aholini xorijiy tajribalar asosida bilim malakalarini oshirib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O’zbekiston-2030” strategiyasi to’g’risida”gi PF-158-son Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O’zbekiston” nashriyoti, 2021-yil. 464 bet.
3. O’zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
4. Madraximov U. O’zbekistonda iqtisodiy o’sish sifatini oshirishning dolzarb masalalari. T.: PMTI, 2016-y. – 194 b.
5. Lucas R. On the Mechanics of Economic Development // Journal of Monetary Economics. - 1988. - №22
6. E.Denison. Trends in American Economy Growth, 1929-1982. Washington: The Brjking Institution, 1985. P. 30
7. Салийчук В.Ф. О теоретических моделях экзогенного и эндогенного типов экономического роста. «Экономика и право». Вестник Удмуртского университета, 2012. Вып. 1. -С. 62-71.

8. Маркарьян Э.А. и.др. Экономический анализ хозяйственной деятельности: учеб. пособ./–2-е изд. перераб. и доп. – М.: КНОРУС, 2010.– С.45.
9. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учеб. пособие. – Минск: ООО “Новое знание”, 2000. – С.386.
10. Vaxabov A., Ibrohimov A., Ishankulov N. Molivayi va boshqaruv tahlili. Darslik. T.: Sharq, 2005. 135 b.
11. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13



Tashkent, Uzbekistan



ilmiyimaktab@gmail.com



www.laboreconomics.uz